

LEKSIKOLOGIYADA KO'MAKCHILARNING O'RNI VA XUSUSIYATINI TADBIQ ETISH VA TAHLIL QILISH

20-maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Sattorqulova Shalola To'ychi qizi

shalolasattorqulova995@gmail.com

+998933210495

Annotatsiya: Bu tadqiqotlarda tilni leksik-semantik, lingvostatistik va leksikografik usullarda tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratildi. Bu maqolamiz orqali biz, gapdagi o'rni va vazifalarini sanab o'tamiz. Shu bilan birga misollar orqali ko'makchilar haqida yana ko'proq bilib olishingiz uchun namunalar keltiramiz.

Kalit so'zlar: So'z, ko'makchilar, tilshunoslik, ma'nodoshlik, ko'makchilar, qo'shimcha ko'makchilar, morfema, yordamchi so'zlar kategoriyasi, grammatika, xususiyat,

Ko'makchili birikmalar ko'pincha ish - harakat bajarilishida vosita bo'lgan predmetni, ob'yektni ko'rsatish bilan birga ish - harakatning bajarilish holatini, sababini, paytini, o'rmini va yana subyektning maqsadini, niyatini bildirib keladi. Bunday birikmalar gapda asosan to'ldiruvchi va hol sintaktik pozitsiyasida keladi. Shuning uchun ko'makchi ishtirok qilgan gaplarning semantik-funksional xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilshunosligida ko'makchilar presuppozitsiyasi bilan bog'liq ko'pgina masalalar haligacha o'z yechimini kutmoqda. Ko'makchilar so'zlar orasidagi grammatik munosabatni ifodalabgina qolmay, ergash so'zning hokim so'zga tobeligini ko'rsatuvchi leksik -grammatik vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Ko'rinadiki, ko'makchilar kelishiklar singari so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan grammatik vositalardan biridir. U ot, olmosh yoki otlashgan so'zlarning boshqa so'zlarga asosan, fe'lga bog'lanishini ko'rsatadi. Ko'makchilar, ikkinchi tomondan kelishiklarning ma'nosini to'ldiradi. ko'makchilarning bu ikki xil vazifasi faqat sintaktik uzvlardagina - ko'makchi uzvlarda ayon bo'ladi.

ko‘makchilari bosh kelishikdagi so‘zni yoki qaratqich kelishigidagi olmoshlarni talab qiladi. Yo‘nalish, sabab, maqsad munosabatlarini ifodalash uchun qo‘llanadigan ko‘ra, qarshi, qarab, qaramasdan, qaramay ko‘makchilari jo‘nalish kelishigidagi so‘zni talab qiladi. Ko‘makchilar va ularning uslubiy xususiyatlari Vatan uchun to‘kkali yo‘qmi bir qoshiq qoning? (H. Olimjon) Yuqoridagi gapda Vatan so‘zini to‘kkali fe‘liga grammatik va mazmuniy tomondan bog‘lash maqsadida uchun yordamchisi ishlatilmoqda. So‘zlarning o‘zaro grammatik va mazmuniy munosa-batini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi so‘zlarga ko‘makchilar deyiladi. Masalan, Oyni etak bilan yopib bo‘lmas. (Maqol) Ko‘makchilar tarixan mustaqil so‘zlar bo‘lib, hozirgi kunda leksik ma‘nosini yo‘qotgan va grammatik ma‘no ifodalashga o‘tgan so‘zlardir. Mustaqil ma‘nosini yo‘qotish darajasiga ko‘ra, ko‘makchilar ikki guruhga bo‘linadi: 1) sof (asl) ko‘makchilar; 2) vazifadosh ko‘makchilar. Leksik ma‘nosini tamoman yo‘qotib, faqat grammatik ma‘no ifodalashga o‘tgan ko‘makchilarga sof (asl) ko‘makchilar deyiladi. Bunday ko‘makchilarga kabi, singari, bilan, birga, uchun, sayin, haqida, holda kabi ko‘makchilar kiradi. Leksik ma‘nosini saqlagan holda, gapda grammatik ma‘no ifodalash vazifasini bajaruvchi so‘zlarga vazifadosh ko‘makchilar deyiladi. Bunday ko‘makchilarga ustida (ish ustida), ostida (ozodlik bayrog‘i ostida), oldida (vijdoni oldida), orasida, orasiga (xalq orasida), boshida (yo‘l boshida), qarab (Toshkentga qarab yurmoq), bo‘ylab (daryo bo‘ylab) singari ko‘makchilar kiradi. Vazifadosh ko‘makchilar ko‘makchilashayotgan ot va fe‘llardir. Shunga ko‘ra bunday so‘zlar mustaqil so‘z vazifasida ham kelishi mumkin bo‘ladi. Masalan, kitob televizor ustida turibdi —televizor ustida janjallashdi. Devordan bo‘ylab qaradi — Ariq bo‘ylab ketdi va h.k.

Ushbu manbalarda ko‘makchilarning genetik jihatdan ot, sifat, ravish va fe‘lning ravishdosh shakllaridan ajralib chiqishi qiyosiy-tarixiy tahlillar asosida dalillangan. Olib borilgan ushbu ilmiy izlanish natijalari mazkur lisoniy birliklarni keyingi tadqiqolari, shuningdek, maktab va oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tiliga oid darslik va qo‘llanmalarida mazkur yordamchi so‘zlarni yoritishda manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Yordamchi soʻzlar, ayniqsa, koʻmakchi soʻzlarni tahlilga tortar ekanmiz, biz avvalo, “soʻz” atamasiga diqqatimizni qaratamiz. Bir guruh olimlar koʻmakchilarning soʻz ekanini tan olmasligini, lekin bu xato fikr ekanligini asoslab beradi. “Yordamchi soʻzlar” deb ishlatishimizni, lekin ularning soʻz sifatida tan olmasligimizni; koʻmakchi soʻzlar ham mustaqil soʻz turkumlaridan kelib chiqqanligini rad etmasdan, ularning soʻz ekanligini rad etishimizni aytib oʻtadilar. Lekin koʻmakchilarning soʻz ekaniga shubha qiladilar. Vaholanki, otkoʻmakchilar, sifat-koʻmakchilar, ravish-koʻmakchilar, feʼl-koʻmakchilar deyilgan atama har qanday koʻmakchini qaysi soʻz turkumlariga taalluqli ekanini qayd etishdir. Bu holatni jumlaning cheklovchi komponenti. Natijada, soʻz maʼlum bir leksik yoki moddiy xususiyatlarga ega boʻladi. jumlaning cheklovchi komponenti. Natijada, soʻz maʼlum bir leksik yoki moddiy xususiyatlarga ega boʻladiprofessor A.B.Pardayev quyidagicha izohlaydi: “Nafaqat koʻmakchilarni, balki boshqa yordamchi soʻzlarni ham soʻz deb hisoblamaslik “soʻz” atamasini “leksema” tushunchasi bilan almashtirishdan kelib chiqqan...”. Shu oʻrinda lugʻatlarga murojaat qilamiz. Azim Hojiyev “leksema” va “soʻz”ni, leksema - lugʻaviy maʼno anglatuvchi unsur, soʻz - leksemaning shakl va mazmun bilan voqelangan koʻrinishi”,-ekanligini izohlaydi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida q a d a r koʻmakchisi harakat, voqea-hodisaning payt jihatdan davomiyligi, uning chegarasini maʼlum vaqtgacha davom etganligini bildiradi. Bu koʻmakchilarning qoʻllanilishi mavjud darslik va ilmiy adabiyotlarda joʻnalish kelishigini boshqarib, harakat, voqea-hodisaning maʼlum vaqtgacha boʻlganligi taʼkidlanadi. Tergovchi huzuridagi bu uchrashuvga qadar Johongir ikki oʻt orasida edi. Ozodlikka chiqquniga q a d a r qolgan yillarini, oylarni, haftalarni, kunlarni xatto soatlarni hisoblardi (T.Malik). 2) Biror voqea-hodisa yoki harakatning keyin boʻlishini ifodalovchi koʻmakchilar. Bu tildagi keyin, s oʻ n g koʻmakchilari ish-harakat voqeaning keyin boʻlganligini bildiradi. Keyin koʻmakchisi daqiqa, soat, oy kabi vaqt bildiruvchi soʻzlardan keyin kelib, voqea-hodisa, harakatning maʼlum vaqtdan keyin sodir boʻlishi ifodalanadi. Masalan: Yana bir daqiqadan keyin kemamiz Betta sayorasining bosh kosmodromiga qoʻnadi. Bu yetmagandek, yana bir oydan

keyin kaminaning o‘zini ham o‘g‘irlashni mo‘ljallashgan (H.Shayxov). Yarim soatdan keyin futbol bo‘ladi, ko‘rishmoqchi (S.Ahmad)

Bundan kelib chiqadiki, ko‘makchining leksik ma‘nosi o‘zi birikib kelayotgan mustaqil ma‘noli so‘zning leksik ma‘nosiga bog‘liq ekan. Turdi Rustamov mustaqil va yordamchi so‘zlarda leksik va grammatik ma‘no mavjudligi, biroq bu ularning mustaqil ma‘noli so‘zlardagi kabi leksik va grammatik ma‘no hosil qiladi degan fikr keltirib chiqarmasligini aytadilar. Dunyo tilshunosligida “oraliq uchunchi” turkumlariga oid qarashlar turlicha bo‘lib, biz tilning turli xususiyatlarini inobatga olgan holda ko‘makchilashish jarayonini matn bilan bog‘laymiz.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek tilida ko‘makchilarning o‘rnini va vazifalarini ko‘rsatish bilan bir qatorda nafaqat yordamchi so‘zlar orasida, balki o‘zbek tilining boshqa birliklari tasniflanishida ham bir-biriga zid ma‘lumotlar, turlicha qoidalar uchrab turadi. Bu masalalarni yechishimizda ko‘makchilarning xususiyatlarini va gapdagi o‘rnini bilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev F., Ibrohimova F. O‘zbek tilida boshqaruv. T., 1982. 24 -25 -b.
2. Kononov A.N. Poslelogi v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike. Tashkent. 1951. S.6.
3. Tursunov U. Muxtorov J. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - T., 1975. 238-243- b.
4. С. Ахманова Словарь лингвистических терминов издательство; Советская энциклопедия, Москва-1966.
5. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. ЎзМЭ. Тошкент. 2002. 164-бет.
6. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўзларнинг лингвистик табиатига доир айрим мулохазалар // Қарақалпақ мамлекетлик университетиниң хабаршыси; Нукус, 2011. –№ 1-2(10-11).